
TUMAN HOKIMINING SAYYOR QABULI O'TKAZILDI.

Toshloq tumani hokimi A.Djurabayev Guzarboshi mahallasida istiqomat qiluvchi fuqarolar bilan uchrashdi. Ularning dard-u tashvishiga quloq soldi, muammolarini tingladi. Sayyor qabul davomida fuqarolar o'zlarini qiynayotgan muammo, taklif va mulohazalari bilan tuman hokimiga murojaat etdilar.

Murojaatlarning aksariyati tadbirkorlik uchun yer ajratish, kredit, moddiy yordam, uy joy bilan ta'minlash kabi masalalar bo'lib, barcha murojaatlarning ijobiy yechimi yuzasidan tuman hokimi tushuntirishlar berib o'tdi.

Barcha murojaatlar tegishli ro'yxatga olinib, ayrim murojaatlar joyida hal etildi. Muddat talab etiluvchi murojaatlar esa hal etish uchun tegishli mutasaddilarga biriktirilib, nazoratga olindi.

2022-09-30 10:30:59